



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI HAY'AT QARORI

2025-yil 7-mart

№ 6/1

Toshkent sh.

“Ijro.gov.uz” tizimidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlari bilan Vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi 2025-yil fevral oyi yakunlari, mart oyida bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar ijrosini barvaqt bajarish ta’minlash bilan bog‘liq chora-tadbirlar haqida.

Vazirlik hay’ati ta’kidlaydiki, 2025-yilning fevral oyi davomida ijro intizomini yanada mustahkamlash, “Ijro.gov.uz” tizimidagi Davlat rahbarining topshiriqlari ijrosini o‘rnatilgan muddatlarda bajarish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ–5132-sonli qarori asosida tashkil qilingan yagona va uzluksiz **“texnologik zanjir”** tizimini samarali yo‘lga qo‘yish borasidan muayyan ishlar amalga oshirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripovning 2025-yil 13-yanvardagi 07-15-1-sonli ko‘rsatmasi bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan joriy yilga belgilangan ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida, samarali va to‘liq hajmda amalga oshirilishini ta’minlash, shuningdek, ijro intizomini yanada mustahkamlash, ijro etuvchi hokimiyat organlari tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari va mutaxassislarining ish yuritish malakasi va kasbiy darajasini (professional bilimini) oshirish maqsadida 2025-yil 8-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Nazorat inspeksiyasi, Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi, Agrosanoat majmuasiga qarashli vazirlik va idoralarning nazorat va ijro intizomi bo‘limi rahbarlari ishtirokida ZOOM platformasi orqali videokonferensaloqa (VKA) shaklida o‘quv-seminar o‘tkazilgan.

2025-yilning fevral oyida ijrosi ta’minlanishi lozim bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarini 20-fevralga qadar ijrosini ta’minlashga qaratilgan topshiriqlar ro‘yxati, vazir o‘rinbosarlari kesimidagi *Kalendar reja* hamda *“Yo‘l xarita”lar* ishlab chiqilib, 8-yanvar kuni Vazir Sh.Xamrayev imzosi bilan eslatma va ijro uchun barcha vazir o‘rinbosarlari, Vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari hamda Vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

Hisobot davrida (2025-yilning fevraloyi davomida) Vazirlikning 3 ta buyrug‘i bilan jami 3 ta, shu jumladan, 2 ta Vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo‘lim boshliqlari, 1 ta respublika tashkiloti rahbar-xodimlariga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga muvofiq **hayfsan** e‘lon qilingan.

2025-yilning fevral oyi davomida “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimidagi nazoratda bo‘lgan jami 90 ta, shundan Vazirlik asosiy ijrochi bo‘lgan 53 ta O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlaridan 51 tasi (96,2 foizi) to‘liq bajarilgan va nazoratdan chiqarilgan, **2 ta (3,8 foiz) topshiriqning ijro muddatini uzaytirish va nazoratdan olish bo‘yicha takliflar Adliya vazirligiga kiritilgan** bo‘lib, Vazirlar Mahkamasining navbatdagi Rayosat yig‘ilishi bayoniga kiritilgan.

Jumadan, Irrigatsiya tizimlari va yirik gidrotexnik inshootlardan foydalanish boshqarmasi boshlig‘i (R.Begmatov) tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-noyabrdagi PQ–407-sonli qarorining 16-bandi topshirig‘i, ya’ni, xorijiy tajriba

asosida hududlardagi kanallardan samarali foydalanish va ularni monetizatsiyalash maqsadida, kanallar qismida ko'p funksiyali ko'priklarni (savdo, xizmat va ko'ngilochar) qurish bo'yicha talablarni tasdiqlash topshirig'i:

Suv xo'jaligi sohasidagi loyihalarni amalga oshirish Departamenti direktori o'rinbosari (N.Xo'jaqulov) tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-dekabrda PQ-430-sonli qarorining 17-ilovasi 54.1-bandi topshirig'i, ya'ni, Suv ta'minoti og'ir bo'lgan, aholiga ijara asosida ajratilgan 51 ta konturdagi 370 gektar yer maydonlari suv ta'minotini yaxshilash. Sug'orish uchun quduq qaziladigan yer maydonlarini aniqlash va belgilangan tartibda suv hajmi yuzasidan xulosalar olish topshirig'ining *ijro muddatini uzaytirish* bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sonli qaroriga binoan Adliya vazirligiga takliflar kiritilgan.

2025-yilning mart oyida ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlarini 24-martga qadar ijrosini ta'minlashga qaratilgan I-II-kartoteka topshiriqlar ro'yxati, vazir o'rinbosarlari kesimidagi *Kalendar reja* hamda "*Yo'l xarita*"lar ishlab chiqilib, 17-fevral kuni Vazir Sh.Xamrayev imzosi bilan eslatma va ijro uchun barcha vazir o'rinbosarlari, Vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda Vazirlik tasarrufidagi respublika tashkilotlari rahbarlariga yetkazilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, taqdim etilgan hisobot va axborotlarni tinglab hamda muhokama qilib ijro intizomiga rioya qilish borasida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish, "Ijro.gov.uz" tizimida nazoratda turgan 2025-yil mart oyida bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar ijrosini barvaqt bajarish bo'yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni ko'rish orqali belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli ta'minlash bo'yicha boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

Qaror qiladi:

1. "*Ijro.gov.uz*" tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlari bilan Vazirlikka yuklatilgan topshiriqlar ijrosi 2025-yil fevral oyi yakunlari, mart oyida bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar ijrosini barvaqt bajarish ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlar haqida"gi axborot **rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.**

2. Vazir o'rinbosarlari, Vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, viloyatlar irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlari tomonidan 2025-yil fevral oyi davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va yig'ilish bayonlarida Vazirlikka yuklatilgan topshiriqlarning ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar **yetarli emas deb topilsin.**

Belgilab qo'yilsinki, "Ijro.gov.uz" tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining topshiriqlarining ijrosini belgilangan muddatlarda to'liq va sifatli bajarilishi, shuningdek, ularning ijro holati to'g'risidagi ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligiga hamda "Ijro.gov.uz" tizimiga o'z vaqtida kiritilishiga Vazirning barcha o'rinbosarlari shaxsan mas'ul hisoblanadilar.

3. Vazirning birinchi o'rinbosari T.Butunbayev, Vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, Z.Ishpulatov, Vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda Vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga:

"Ijro.gov.uz" tizimida 2025-yil mart oyida nazoratda bo'lgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha vazir o'rinbosarlari kesimida ishlab chiqilgan hamda joriy yil 17-fevral kuni suv xo'jaligi vaziri tomonidan tasdiqlangan *Kalendar reja*, "*Yo'l xaritasi*", shuningdek, I va II-kartotekaga kiritilgan mart oyida ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlari bo'yicha topshiriqlar ro'yxatini ijro uchun qabul qilish;

joriy yilning I-yarim yilligida Vazirlik tomonidan ishlab chiqilishi lozim bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarga, dasturlar, takliflar va chora-tadbirlarga aniqlik kiritib ularning ro'yxatini shakllantirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni kamida **45 kun oldin** boshlab, tegishli vazirlik va idoralar hamda vakolatli organlar bilan kelishilgan hamda Adliya vazirligining xulosasini olgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini tashkil etish bilan bog'liq chora-tadbirlarni amalga oshirish;

"Ijro.gov.uz" tizimidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining topshiriqlarini tahlil qilib, ushbu topshiriqlar ichidan mablag' talab qilinadigan va xorijiy mamlakatlar, shu jumladan, Xalqaro moliya institutlari va chet el investitsiyalari bilan bog'liq masalalar bo'yicha birinchi navbatda shug'ullanib, ularni to'laqonli va sifatli ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish;

Tashkiliy-nazorat va tahlil bo'limi tomonidan har kuni "Ijro.gov.uz" tizimi negizida yaratilgan va ushbu tizimga integratsiya qilingan "Ijro.uz" **elektron hujjat tizimi** hamda **minwater.uz** korporativ pochta orqali jo'natilayotgan xat va hujjatlarda ko'rsatib qo'yilgan topshiriqlarni ijrosini belgilangan muddatlardan barvaqt bajarish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 31-maydagi PQ-5132-sonli qarorining ijrosini tizimli ravishda tashkil etish, **joriy yilning mart oyi yakuniga qadar** nazoratdan chiqarilishi lozim bo'lgan:

1-kartotekaga qarashli (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va topshiriqlari bajarilishining nazoratini yurituvchi "**Ijro.gov.uz**" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimida nazoratda bo'lgan) **118 ta hujjat**;

2-kartotekaga qarashli (Vazirlar Mahkamasining nazoratida bo'lgan Hukumat qarorlari, farmoyishlari, bayonlari va topshiriqlari) **32 ta hujjat** ijrosi yuzasidan kunlik monitoring o'rnatish hamda topshiriqlarni belgilangan muddatda, to'laqonli va sifatli qilib bajarish;

har bir berilgan ko'rsatma va topshiriqlarga asosan, ijro intizomi masalasiga yuqori mas'uliyat bilan yondashgan holda belgilangan topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida, to'liq va sifatli ta'minlash bo'yicha ishlarni to'g'ri rejalashtirish, topshiriq ijrosini amalga oshirish uchun eng kam mablag', resurs va energiya sarflanishi zarurligini inobatga olish;

topshiriqlarni ijro muddatidan barvaqt bajarish bo'yicha oldindan zarur chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirish, yuzaga kelayotgan har bir muammoli masalani vazir o'rinbosarlari, lozim bo'lsa Vazir huzurida muhokama qilib, hamkorlik va muloqot asosida hal etish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlari va (yig'ilish bayonlari) topshiriqlari ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni **vazirning birinchi o'rinbosari huzurida har hafta juma kuni va vazir huzurida har haftaning dushanba kunlari** muhokama qilib, bayon bilan rasmiylashtirib borilishini tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

4. Vazir Kotibiyati mudiri S.Alimov hamda Tashkiliy-nazorat va tahlil bo'limi boshlig'i M.Ibragimovlarga:

15-martga qadar 2025-yilning **aprel oyi davomida** ijrosi ta'minlanishi hamda "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimidan nazoratdan chiqarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar bo'yicha **Kalendar reja** tayyorlab eslatma va ijro uchun vazir o'rinbosarlari, Vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda Vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga yetkazish;

Suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamrayev tomonidan tasdiqlangan I va II-kartotekaga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining topshiriqlari ro'yxati, Kalendar reja hamda vazir o'rinbosarlari kesimidagi "Yo'l xarita"lar ijrosi yuzasidan **kunbay tizimida** tizimli va qat'iy monitoring yuritish;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosi bo'yicha "Ijro.gov.uz" tizimiga kiritilgan ma'lumotlar va tasdiqlovchi hujjatlarga asosan topshiriqlarni nazoratdan yechish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Hisob palatasi bilan muntazam ravishda hamkorlikda ish olib borish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati hujjatlarida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni muntazam ravishda (**har oy yakuni bilan**) tahlil qilib borish, ushbu hujjatlarning ijrosini ta'minlashga e'tiborsizlik va mas'uliyatsizlik bilan yondashayotgan rahbar-xodimlarga nisbatan tegishli intizomiy jazo choralari qo'llash yuzasidan Vazirlik rahbariyatiga asoslangan xulosa va takliflar (*intizomiy jazo chorasi qo'llash yuzasidan buyruq loyihasi*) taqdim etish vazifalari topshirilsin.

5. Ushbu qaror topshiriqlarining ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari (*ijro intizomi uchun mas'ul*) T.Butunbayev zimmasiga yuklatilsin.

Hay'at raisi



Sh. Xamrayev